

33-dars

Darsning mavzusi: Gap bo'laklari (100 – 102-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: gap bo'laklari, ularning so'rog'i, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash; mashq va topshiriqlardagi terma gap va matnlarni tinglab tushuna olish, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, kesim gapning markazi ekanini, eganing kesim bilan munosabati va so'roqlarini bilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni tabiatni sevish va ardoqlash ruhida tarbiyalash, bilimli va tirishqoqlik ruhini singdirish; milliy qadriyatlarni bilish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini farqlash ko'nikmalarini takomillashtirish; talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi; bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish; axborot manbalaridan va darslikdan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish.

Darsning turi: mustahkamlovchi dars.

Darsning metodi: suhbat, analiz, "Kim tezkor!" ta'limiy o'yini, ko'rgazmalilik.

Darsning jihozi: multimedia ilovalari, tarqatma materiallar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

To'lqin tarozida tarvuz tortdi.

Uyga vazifa 99-mashq tekshirib chiqiladi. Suhbat jarayonida o'quvchilar bilan "Kim tezkor?" o'yini o'ynatilib, mustahkamlanadi.

O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. O'qituvchi uchta A4 formatidagi qog'ozga "do'st", "qushlar", "maktab" so'zlarini yozadi va o'quvchilarni uchta qatorga bo'lib, har bir qator boshidagi partaga qog'ozni teskari qilib qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozni olib, undagi yozilgan so'z bosh harfi bilan boshlanadigan so'zlarni topib yozish topshirig'ini beradi. Bunda birinchi partadagi ikki o'quvchi bir so'zni yozadi va orqadagi juftlikka uzatadi. O'yin oxirgi partadagi o'quvchilar yozib bo'lgunlariga qadar davom etadi. Ular yozib bo'lishgach, qog'ozni o'qituvchiga yetkazib beradilar.

O'yin yakunida har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, yozilgan so'zni o'qiydi. Boshqa o'quvchilar so'zlarning takrorlanmaganligi va to'g'riligini tekshirib boradilar.

III. Yangi mavzu bayoni.

Darslikda berilgan qoida taqdimot yordamida tushuntiriladi.

Ega va kesim gapning **bosh bo'laklaridir**. Ular birgalikda gapning asosini tashkil etadi. Gapning egasi nima qilganini bildirgan bo'lak **kesim** deyiladi. Kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq (=====) chiziladi. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo'lak **ega** deyiladi. Eganing tagiga bir to'g'ri chiziq (_____) chiziladi.

100-mashq guruhlarda yozma bajariladi.

1-guruh kim?, kimlar? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarga gaplar yozadilar.

2-guruh nima?, nimalar? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarga gaplar yozadilar.

3-guruh nima qildi? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarga gaplar yozadilar.

IV. Mustahkamlash.

101-mashq matndan "kim?", "nima qildi?" so'roqlariga javob bo'luvchi bo'laklarni topib yozish aytiladi.

102-mashq guruhlarda bajariladi. o'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi. Har bir guruh yil fasllarining biriga mos gaplar yozadilar. Ega va kesimni topib, tagiga chizadilar.

IV. Darsga yakun yasash va baholash

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

103-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.